

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ**

**ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ
ИЖТИМОЙ ФАНЛАР КАФЕДРАСИ**

ФОРИШ МАИШИЙ ХИЗМАТ КАСБ-ҲУНАР КОЛЛЕЖИ

С.Кистаубаев. Ҳ.Қаҳҳоров

**“Дунёвий ва диний маданият”
мавзусини ўқитиш технологияси**

(услубий қўлланма)

ЖИЗЗАХ - 2016

С.Кистаубаев. Ҳ.Қаҳҳоров “Дунёвий ва диний маданият” мавзусини ўқитиш технологияси (Услубий қўлланма) Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги: - Жиззах ДПИ, 2016.-20 б.

Масъул муҳаррир: ф.Ф.ном, М.Саидов

**Такризчилар: С.Жўраев
Б.Тошбоев**

Ҳамкорликда тайёрланган мазкур услубий қўлланма Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 06.11.2005 йил 241-сонли ҳамда Жиззах давлат педагогика институти ректорининг – 0-84-сонли буйруғлари асосида Олий таълим муассасалари кафедраларининг ўрта махсус, касб-хунар таълим муассасаларида филиалларини ташкил этиш ва ўқув, илмий, услубий, маънавий-маърифий ҳамкорлигини таъминлаш ижросини бажарилишини таъминлаш мақсадида яратилди.

Услубий қўлланма Жиззах ДПИ Ижтимоий фанлар кафедраси қарори билан нашрга тавсия этилган.

КИРИШ

Замонавий таълим тизимини ташкил этишга қўйиладиган муҳим талаблар қисқа вақт орасида муайян назарий билимларни ўқувчиларга тўлиқ етказиб бериш, уларда маълум фаолият юзасидан кўникма ва малакаларни ҳосил қилиш, шунингдек, ўқувчилар фаолиятини назорат қилиш, улар томонидан эгалланган билим, кўникма ҳамда малакалар даражасини баҳолаш ўқитувчидан юксак педагогик маҳорат ҳамда таълим жараёнига нисбатан инновацион ёндашувни талаб этади. Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятига янгилик, узгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интрактив методлардан фойдаланилади. Интрактив методлар бу жамоа бўлиб фикрлаш деб юритилади, яъни педагогик таъсир этиш усуллари бўлиб, таълим мазмунининг таркибий қисми ҳисобланади. Яъни педагог ва ўқитувчи-ўқувчиларнинг биргаликда фаолият кўрсатиши орқали амалга оширилади.

Кенг маънода “Инновация” педагогик тизимга янгилик киритиш йўли билан таълим-тарбия жарёнини мақбуллаштириш, сифат ва самарадорлигини оширишни кўзда тутди. Педагогик тизимга киритилган янгилик сифат ва самарадорликка салбий таъсир қилиши ҳам мумкин. Биз тизимга унинг ички захира ва имкониятларини ҳисобга олган ҳолда сифат ва самарадорликни ошириш мақсадида киритилган янгиликларнигина инновация деб тушунамиз. Педагогик тизимни такомиллаштириб, юқори сифат ва самарадорликка эришишга оид ғоя, назария, қоида, шакл, методлар ва воситалар тизимини педагогик инновациялар сифатида қабул қилиш мумкин. Сўнгги йиллар давомида педагогик тизимга кўплаб янгиликлар киритилаётганлигининг гувоҳи бўлиб турибмиз. Мисол сифатида янги концепциялар, инвестициялар, ДТС, тестлар, муқобил ўқув режалар, янги турдаги ўқув юртлари, технологиялар ва шу кабиларни кўрсатиш мумкин.

Инновацион технологиялар - бу талабаларнинг *тизимли ижодий фикрлашини* ва ижодий масалаларни ечишда ностандарт ғоя – фикрларни билдириш қобилиятларини шакллантиришга қаратилган технологиялардир.

Инновацион таълим технологиялари – мажмуавий интегратив тизимлар бўлиб, улар ўзида таълим мақсадлари билан белгиланган касбий кўникма, малакалар ва шахс хислатларини ўрганувчилар томонидан эгалланиши ҳамда билимларни ўзлаштиришга йўналтирилган операция ва ҳаракатларнинг тартиблаштирилган тўпламини акс эттиради.

Қуйида инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиб яратилган машғулотининг ишланмасини ҳавола этамиз.

Mavzu: Dunyoviy va diniy madaniyat

Reja:

1. Dunyoviy va diniy madaniyat tushunchalari mazmuni.
2. Xristian madaniyati.
3. Islomiy madaniyat. Islom va ilmiy bilimlar rivoji.
4. Tasavvuf va madaniyat.

Tayanch soʻz va iboralar:

Oʻrta asrlar. Ikonografiya. Skriptoriylar. Roman uslubi. Gotika uslubi. Vizantiya uslubi. Jangovor sheʼriyat. Buyuk Karl. Bartold Regenburskiy. Foma Akvinskiy. Iogann Guttenberg. Tomizm. Neotomizm. Kutubxonalar. Taʼlim tizimi. Yepiskoplik maktabi. Oʻrta asr Yevropa oliy taʼlim muassasalari: Sarbonna, Oksford, Kembrij, Parij universitetlari. Ilmiy darajalar. Kitob chop etish. Ilmfan. Haykaltaroshlik. Tasviriy sanʼat. Hokimiyat organlari.

Asosiy adabiyotlar;

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. Asarlar, 7tom. –T.:“Oʻzbekiston”, 1999.
2. Axmedova E., Gabidulin R. Kulturologiya. Mirovaya kultura. –T.: Akademiya xudojestv Uzbekistana, 2001.

3. Gurevich A. Проблемы средневековой народной культуры. –М.: “Искусство”, 1990.
4. Le Goff Dj. Сивилизација средневековог Запада. –М., 1992.
5. Lyubimov M. Искусство Западной Европы. Средние века и Возрождение в Италии. –М., 1982.
6. Gulmetov E. va boshqalar. Madaniyatshunoslik. Ma’ruzalar matni. –Т., 2000.
7. Silichev D. A. Kulturologiya. –М.: “Prior”, 1998.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Montgomeri U. Vliyaniye Islama na srednevekovuyu Yevropu. –М.: “Nauka”, 1972.
2. Petruhin N. N. XX leksiya po istorii kultury. –М.: “Vladar”, 2001.
3. Riyajlov V. N. Искусство средних веков. –М., 1988.

Мавзунинг қисқача баёни:

O‘rta asrlar tushunchasi Yevropada V asrdan boshlab to XVII asrning birinchi yarmiga qadar bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu davr antik madaniyatning inqirozini belgilab bergan Rim davlatining qulashi bilan boshlandi va Yevropa Uyg‘onish (Renessans) davriga kelib yakunlandi. Ana shu antik va Uyg‘onish davrlari o‘rtasi zulmat davri (ikki yuksalish davri oralig‘i) deb nom olgan. U fanda o‘rta asrlar davri deb atala boshladi.

Yevropada o‘rta asrlarni quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

1. Ilk o‘rta asr – V-XI asrlar.

Bu davr feodal munosabatlarga o‘tish, feodallar tabaqasining shakllanishi, katolik cherkov ta’sirining kuchayishi, oliy ta’lim muassasalari – universitetlarning paydo bo‘lish davridir.

2. Mumtoz (klassik) o‘rta asr – XI asrdan XV asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davr.

Ushbu davrga xos xususiyatlar shundaki, qishloqdagi ishlab chiqarish rivojlanibgina qolmasdan, shaharlarda ham hunarmandchilik sexlari paydo bo‘ldi,

shahar infratuzilmasi yaratildi, markazlashgan yirik davlatlar tashkil topdi. Qirol hokimiyati kuchayib, uning jamiyat ravnaqiga ta'siri ortib bordi. Kitob nashr etish yo'lga qo'yildi, fanning qator tarmoqlariga asos solindi.

3. So'nggi o'rta asr – X-VI asrX-VII asrning birinchi yarmi.

Bu davrda ilmfan va texnika rivojlandi. Inson turmush tarzida buyuk o'zgarishlar yuz berdi, yangi qit'alar kashf etildi. Kapitalistik munosabatlarga asos solindi. Demokratik tamoyillar shakllandi.

V-VI asrlarda Rim imperiyasi yerlarida asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi germanlarning dastlabki davlatlari tashkil topdi. Madaniyat ravnaqi bo'yicha o'zidan yuqori bo'lgan xalqlar ustidan hukmronlik qilish (hunlar hujumlari natijasida 476--yilda Rim imperiyasi qulagan edi.) germanlarni boshqaruv tizimini yangi tartibga moslashtirishga majbur etdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jihatidan bu davr feodalizm bosqichiga to'g'ri keladi. Ammo o'rta asrlar tushunchasining asosiy mazmuni muayyan davrning vaqt chegaralarini aniqlashtirish bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki bu davrni madaniyat inqirozi pallasi sifatida qabul qilishidadir. Shu ma'noda o'rta asrlar antik davrga nisbatan so'zsiz yo'qotishlar davri deb qaralar edi. O'rta asrlar madaniyatiga past nazar bilan qarash ko'pincha antik davr madaniyatiga hayrixohlik bilan qarovchi tadqiqotchilar orasida tarqalgan edi. Albatta, bu – subyektiv va bir yoqlama yondashuvdan boshqa narsa emas.

O'rta asrlarning “zulmat dunyosi” timsoliga aylanishida ushbu davr namoyandalari bo'lgan yozuvchilar, shoirlar, tarixchilar, diniy ulamolar va davlat arboblarning ham “hissasi” bor, albatta. Chunki ular o'z ijodida asosan zamonaviy hayotning murakkab jihatlarini aks ettirganlar. Bunday asarlarda kelajakka ishonchsizlik, hayotdan norozilik tuyg'usi sezilib turadi. Shu boisdan ham, bu muammolardan xalos bo'lish imkoni sifatida ajal, o'lim mavzusi markaziy o'rin tutgan. Ular nazarida o'rta asrlar bekorga sarflangan davr, behuda ketgan yuzlab yillar sifatida gavdalangan. O'rta asrlarni faqat buzg'unchilikdan iborat, antik davr madaniyati yutuqlarini chippakka chiqargan davr, deguvchilar ham ko'plab topilar edi.

G'arbiy, "xristianlar dunyosi" "Rim dunyosi"ning tanazzuli oqibatida emas, balki Rim va varvarlar dunyolarining o'zaro muvofiqlashuvi, birikishi natijasida yuzaga keldi. Ammo u haqiqatan ham yemirilish, zo'ravonlik va shafqatsizlik, antik dunyo madaniyati va sivilizatsiyasining ko'plab yutuqlaridan bebahra qolish kabi jiddiy to'siqlarni boshdan kechirdi. Ko'plab antik davr shaharlari katta talafot ko'rdi: ayrimlari buzib tashlandi, boshqalari (savdo yo'llari o'z yo'nalishini o'zgartirishi munosabati bilan) tanazzulga yuz tutdi. Shunga qaramasdan, ilk o'rta asrlardayoq ayrim sohalarda ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Qullikning bekor qilinishi ijtimoiy taraqqiyotda tub o'zgarishlar yasadi.

Antik davrda asosiy energiya manbayi, bu qullarning jismoniy kuchi bo'lib, ushbu manba yo'qolgach, boshqa imkoniyatlar qidirila boshlandi. Agar antik davrda nazariy bilimlar muvaffaqiyatli rivojlangan bo'lsa, o'rta asrlar davri mashina va texnika vositalaridan keng foydalanish uchun keng, ravon yo'llar ochdi. Bu qullikning bekor qilinishining bevosita natijasidir. Antik davr ruhan va jismonan o'zaro muvozanatda bo'lgan inson timsolni ko'rsatishga intildi. Ammo ayniqsa Rim madaniyatida bu g'oyani amalga oshirishda ko'proq jismoniy kamolotni ta'minlash borasida muvaffaqiyat qozonildi. Shuningdek, Demokrit, Platon, Aristotel kabi antik davr mutafakkirlarini ijtimoiysiyosiy va tabiiyfalsafiy qarashlarining Jordano Bruno, Galileo Galiley, Tomas Mor, Tommazo Kampanella kabi o'rta asr nazariyotchilimlari tomonidan ilg'or ta'limotlar yaratilishiga ko'rsatgan bevosita ta'sirini rad etib bo'lmaydi. Masalan, Platon, Aristotellar tomonidan ilgari surilgan ideal davlat to'g'risidagi g'oyalar Tomas Mor, Tommazo Kampanellalarining utopik qarashlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan shu qarashlar asosida keyinchalik gumanizm, demokratiya to'g'risidagi yangidanyangi ta'limotlar rivojlanib, bugungi kunda ham adolatli, farovon jamiyat qurishda jahon xalqlariga dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Birgina shu misoldan ko'rinib turibdiki, xalqlar, avlodlar va davrlar o'rtasidagi vorisiylik nafaqat ayrim hududlar, balki jahon sivilizatsiyasi yuksalishida asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Demak, o'rta asrlar madaniyati bevosita antik davr madaniyati, ilmfan va san'ati ta'sirida yuksalgan hamda o'sha davrda namoyon bo'la boshlangan

ijtimoiysiyosiy va madaniy hodisalarni yanada boyitgan, keyingi Uygʻonish davri uchun mustahkam zamin hozirlagan.

Oʻrta asr Yevropa madaniyati cherkovdiniy gʻoya bilan yaqindan bogʻlangan edi. Cherkov taʼsiri oʻrta asr madaniyatining turli sohalarida, chunonchi, fanda, maktabda, adabiyotda, sanʼatda aks etdi. Ilmfan u qadar rivojlanmagan ilk oʻrta asrlar davrida, taxminan XI asrning ikkinchi yarmigacha oʻrta asr jamiyatiga gʻoyaviy rahbarlik asosan cherkov tasarrufida boʻldi: Kishilarning olam toʻgʻrisidagi bilimlari mahalliy cherkov taʼlimoti doirasi bilan cheklanardi. Boshqa mamlakatlar toʻgʻrisida maʼlumotlar juda oz boʻlganligidan, yevropaliklar ancha vaqtlargacha olis yurtlar haqida har qanday uydirmalarni toʻqishardi. Fan va texnika taraqqiyoti darajasi juda past boʻlganligidan, odamlar qurgʻochilik, toshqin va kasalliklar oldida ojiz edilar.

Jismoniy ehtiyojlar va lazzatlar mutlaqlashtirilgan Rim jamiyatining achchiq saboqlariga tayanib, xristianlik insondagi ruhiyatga, uning ichki dunyosiga asosiy eʼtiborni qaratdi. U insonni hamma narsadan oʻzini tiyishga, koʻngilli ravishdagi javonmardlikka, hissiy, jismoniy tuygʻularni soʻndirishga chaqiradi. Ruhiyatning jismoniy kamolotdan ustunligini eʼlon qilib, xristianlik kishining chuqur maʼnaviyatini shakllantirishga, uni axloqan yuksaltirishga katta hissa qoʻshdi.

Bu davrda oliy diniy hokimiyatni oliy siyosiy hokimiyat bilan yagona qoʻlda birlashtirishga urinish gʻoyasi kuzatiladi. Bunga Rim papalarining (Sharqda – Arab xalifaligi) Yevropada hokimiyat jilovlarini oʻz qoʻllariga olishga intilishlari misol boʻla oladi. Cherkovning qudratli taʼsiri oʻlaroq, Rim papalari xudoning yerdagi noiblari hisoblangan. XII asrga kelib esa, milliy, siyosiy va davlat manfaatlarni himoya qilish diniy faoliyat bilan sigʻisha olmaydigan oʻziga xos soha ekanligi ayon boʻla bordi.

Maʼlumki, tabiat unsurlari, atrofmuhitdagi jismlar oʻrta asrlarda tirik mavjudotlar sifatida idrok etilgan. Shu bois, turli yovuz kuchlar qurshovida boʻlgan inson ularga qarshi kurashish, oʻzini himoya qilish vositalariga ega boʻlmogʻi lozim edi. Natijada turlituman tumorlar, diniy marosimlarning xilmaxil shakllari rivojlanib boradi. Masalan, Muqaddas suvni isteʼmol qilish kishining gunohlarini yuvib, sogʻligini yaxshilabgina qolmasdan, uni yovuz kuchlar va jodulardan ham himoya qiladi, deb hisoblaganlar.

Dinning jamiyat hayotining barcha jabhalariga bo‘lgan ta’siri butun o‘rta asrlar davomida salmoqli o‘rin tutdi. Bu ta’sir ayniqsa badiiy madaniyat va fan sohasida juda kuchli namoyon bo‘ldi. Shu bois, fanning voqelikka doimo shubha bilan qarashi, mohiyatan dalillar qidirishdan iborat bo‘lganligi, hech narsani haqiqat sifatida qabul qila olmasligi uni og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Fan sohasidagi turg‘unlik o‘rta asrlardagi ruhiy asosning tabiiy, moddiy asosdan ustunligining o‘rnatilishi hisobidan qoplandi. Aynan shu davrda ijtimoiy mavqeyi va millatidan qat’iy nazar, har bir inson hayoti qadrqimmatga ega, degan aqida tarqaldi. Gladiatorlar janglari va odamlarni qurbonlik qilishning taqiqlanishini ham turli dinlarda insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorlikka erisha boshlaganiga misol bo‘la oladi.

O‘rta asr Yevropasi – bu sivilizatsiya gullabyashnagan, natural xo‘jalik hukmronlik qilgan tarixiy davr edi. Bunday turmush tarzi inson tafakkurining tor manfaatlar doirasida qolib ketishiga ham olib keldi. Keyinroq xristian cherkovi jamiyatning barcha tomonlarini siyosiy tashkilot shakliga keltirishning namunaviy asosini yaratdi. Tobelik munosabatlariga asoslangan xristian feodal tabaqachiligi negizida cherkov iyerarxiyasi yotadi (ruhoniylaryepiskoplarkardinallarRim papasi). Qirol – xudoning vassali, saroy ayonlari – qirolning vassali, dehqon – saroy ayonining, ayol – erkakning, uy hayvoni – ayolning, tosh va o‘simliklar – uy hayvonining vassali va b. Toshdan xudogacha keng tarqalgan umumiy vassallik haqidagi ushbu g‘oya ham cherkov manfaatiga to‘g‘ri kelar edi.

Xristian cherkovi feodal jamiyat talabiga javob beradigan kuchli tashkilot sifatida shakllandi. Uning eng quyi pog‘onasida qishloq cherkovi ruhoniysi turardi. Tuman va viloyatlarda yepiskop va kardinallar cherkovni boshqarar edilar. Eng yuqori pog‘onada katolik cherkovi rahnomasi – Rim papasi turardi.

Din hayotni muqaddas shaklda tasvirlovchi g‘oyalarni yaratdi: falsafadateologiya, adabiyotda ilohiy, didaktik shakllar, musiqada cherkov gimnlari – liturgiya va messa, tasviriy san’atda xristianlik sujetlari asosiy o‘rin tutadi. Asosiy fanlar ilohiyot va sxolastika (bu atama fikr so‘qish, dogmatizm, mazmunsiz, yuzaki bilimni anglatgan) edi. Ilohiyot olam va inson haqidagi o‘z “ilmiy” manzarasini yaratdi. Koinot xususidagi ilmda Yer – Olamning, Iyerussalim – dunyoning markazi, degan qarash hukmronlik qildi. Inson

majoziy tarzda mikrokosmos, tana – yer, qon – suv, nafas – havo, harorat – olov, ya’ni u boshlang‘ich ibtidodan iborat, deb qaraldi.

Машғулоти олиб бориш технологияси

<i>Талабалар сони: 26</i>	<i>Вақти: 2 соат</i>
<i>Машғулоти шакли</i>	Инновацион педагогик технологияларга асосланган семинар машғулоти
<i>Амалий машғулоти режаси</i>	1.Дунёвий ва диний маданият тушунчалари мазмуни. 2. Христиан маданияти. 3. Исломий маданият. Ислом ва илмий билимлар ривож. 4. Тасаввуф ва маданият.
<i>Машғулоти мақсади:</i> Дунёвий ва диний маданият тушунчаларининг мазмун-моҳияти, христианлик маданияти, ислом маданияти ва унинг илмий билимлар ривожигаги ўрни, тасаввуф ва маданият тўғрисида билим ҳосил қилиш.	
<i>Мавзунинг мазмуни:</i> Маданият тизимида дунёвий ва диний маданиятнинг ўрни ҳақида билимлар ҳосил қилиш. Шунингдек, дунёвий ва диний маданият тушунчаларининг мазмун-моҳияти, христианлик маданиятининг европа маданий ҳаётига таъсири, ислом маданияти ва унинг илмий билимлар ривожигаги ўрни ҳамда шарқ халқлари маданий ҳаётидаги аҳамияти, тасаввуф ва маданиятнинг уйғин жиҳатлари тўғрисида билим ҳосил қилиш.	
<i>Педагогик вазифалар</i>	<i>Ўқув фаолияти натижалари</i>
- Мавзуни мустақил ўрганиш учун асос яратади.	- Амалий машғулоти режалари билан олдин-дан танишиб чиқиб,

- Мавзу бўйича билимларни чуқур ўзлаштиришга ва мустаҳкамлашга ёрдам беради. - Кичик гуруҳларда ишлашни ташкил қилади. - Ўз нуқтаи назарига ега бўлишни шакллантиради.	тайёргарлик кўради. - Дунёвий маданият моҳияти, жамиятдаги вазифаларини айтиб бера олади. - Диний маданият турлари ва уларнинг ўзаро боғлиқлигини тушунтиради. - Диний маданиятни таснифлаб беради
<i>Ўқитиш усули ва шакли</i>	Слайд тақдимот, вен диаграммаси, тушунчалар таҳлили ва назариялар таҳлили.
<i>Ўқитиш шароити</i>	Техник воситалар билан таъминланган аудитория.
<i>Мониторинг ва баҳолаш</i>	Оғзаки назорат, савол-жавоб, ўз-ўзини назорат қилиш, рейтинг тизими асосида баҳолаш.

Амалий машғулотнинг технологик картаси


<i>Иш жараёнлар вақти</i>	<i>Фаолиятнинг мазмуни</i>	
	<i>Ўқитувчи</i>	<i>Талаба</i>
1-босқич. Мавзуга кириш (10 минут)	1.1. Ўқув машғулоти мавзуси, мақсади ва ўқув фаолияти натижаларини айтади. Таълим жараёни қайси интерфаол усуллар орқали амалга оширилишини эълон қилади.	Мавзу номини ёзиб олади.
2-босқич.	2.1. Талабаларни фикрларини жонлантириш мақсадида “Ақлий	Ёзиб олади.

Асосий (65 минут)	хужум” Техникасидан фойдаланган ҳолда: <i>“Диний ва дунёвий маданият ўртасида қанадй уйғинлик бор?”</i> деб савол билан мурожаат қилади. Фикрларни умумлаштириб амалий машғулоти бошлайди.	Жавоб беради.
	2.2. Талабаларни 3 та кичик гуруҳларга бўлади ва слайдлар тақдимотини таҳлил қилишни топшириқ қилиб беради.	Ушбу услубда икки гуруҳ ўқувчилари бир муаммо ёки вазиятни энг кўп миқдорда тўғри жавоблар олиш мақсадида биргаликда муҳокама қилишади.
	2.3. Гуруҳларга <i>“венн диаграммаси технологияси”</i> дан фойдаланган ҳолда <i>“Диний маданиятга ёндошувлар таҳлил қилинади”</i> дан бирини ҳар бир гуруҳ изоҳлашини айтади. доскага диаграмма чизади.	<i>“Венн диаграммаси технологияси”</i> дан фойдаланган ҳолда <i>“Диний маданиятга ёндошувлар таҳлил қилинади”</i> саволлардан ҳар бирини бир гуруҳ изоҳлаб доскада чизилган диаграммага ёзади.
	2.4. Доскага кластер чизади ва талабалардан динларни кластер усулида таснифлашларини сўрайди.	Талабалар кластердан фойдаланиб диний маданиятларнинг белгиларини таснифлайди ва ўзи

		ёзган қисмни изоҳлаб беради.
	2.5. “Блис-сўров” усулидан фойдаланиб фаол бўлмаган талабалар тайёргарлигини синаб кўради	Саволларга жавоб беради
3-босқич. Якуний (5 минут)	3.1. Иш бўйича якунловчи хулосалар қилади.	Тинглайди
	3.2. Мавзу мақсадига эришишдаги талабалар фаолияти таҳлил қилинади ва баҳоланади.	Тинглайди

СЛАЙД ТАҚДИМОТ

(1-слайд)



Топширик: Ушбу тасвирдаги расмлар қайси диний маданиятга тегишли эканлигини аниқланг ва изоҳлаб беринг.

(2-слайд)




1. "Диний маданият" тушунчаси.



Диний маданиятнинг мафкуравий хусусияти



Ўрта асрлар даврида яқка худолукка асосланган жаҳон динлари-христианлик ва ислом Европа, Осиё ва Африканинг кўп жойларида кўплаб кишилар учун дунёқарашнинг устивор шакли бўлиб, инсон ва бутун жамиятнинг тафаккурини, бутун турмуш тарзини белгилади. Диний ақидалар асосида ўша даврнинг қиёфаси кишилар онгида шаклланиб маданиятнинг ўзига хос хусусиятини белгилади.



Коинот ва осмон жиёмларини дастлабки ва бошланғич ўрнини Худо (Оллох) белгилаб, дунё ва инсонни яратувчиси ҳамда барча мавжудот худонинг (Оллох иродасининг) ижодий яратувчанлик натижасидир. Инсоният тарихи даврларнинг изчиллик билан тақрорланиб туриши каби намоён бўлади, натижада даврларнинг ўрин алмашиши навбатдаги пайгамбарнинг келиши билан содир бўлади.



Пайгамбар жамиятда бузғунчилик ва гуноҳларни тузатишда «илохий аралашувчи» нинг тимсоли ҳисобланган. Бу «худонинг элчилари» бўлган пайгамбарлар тарихидир. Христианликка қўра «элчиларнинг» сўнгиси «худонинг ўғли» Иисус Христоснинг ерга тушиши ҳисобланиб, унинг чормих қилиниши билан Ерда Худонинг ҳукмронлиги бошланади. Ислом дини бўйича Иисус фақат пайгамбарлардан бири ҳалос, охириги пайгамбар «пайгамбарлик тамгаси» бўлган Мухаммаддир. Кишиларга пайгамбарлар орқали олий ҳақиқат маълум қилинган. Яъни, яхшилик ва ёмонлик, номуқаммал – тақомилга муҳтож бўлган ердаги кўринадиган табиий мавжудлик, буида, ердаги олий ҳилкат инсон руҳи бўлиб, у Худо билан бирлашишга ҳаракат қилиши лозим.



Дин – инсон учун намуна-мўминлик, жафокашлик, руҳоният, гуноҳларни ювиш иштиёқи, қутилишдир. Хар ким, хар доим назорат остидалигига, ўзининг Оламда заррадек эканини ҳис қилиши, бу улкан Оламининг ўзига хос марказида сезиларли куч ҳаракатда бўлиши, идрок қилиб худонинг (Оллохнинг) эътиборида эканлигига иқрор бўлади.

Топширик: Ушбу тасвирдаги келтирилган рамзларни диний маданият нуқтаи-назаридан келиб чиқиб изоҳлаб беринг.

(5-слайд)



(6-слайд)



Слайдлар намоишидан сўнг мавзун мустаҳкамлаш учун биринчи навбатда “Тушунчалар таҳлили” методидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Мавзунинг асосий тушунчалари мазмун моҳиятини тушуниш қўйилган масалаларни бир бутун ҳолда идрок этишга кўмак беради.

Тушунчалар таҳлили

№	Тушунчалар	Мазмуни
1.	Диний маданият	
2.	ақлий-мантикий тафаккур	
3.	ибодатхона	
4.	иерархия	
5.	вассал	
6.	илоҳиёт	
7.	ақида	
8.	тахайюл	
9.	мадраса	

Кейинги қадам “Тушунчалар таҳлили” методининг аналоги – “Назариялар таҳлили” методидан фойдаланиш бўлиб, бу усул даражасига кўра “Тушунчалар таҳлили”дан мураккаброқдир. Метод мавзунинг асоси бўлган муҳим назарияларнинг мазмун-моҳиятини тушуниш билан бирга, уларнинг ютуқ ва камчилигига оид мустақил муносабатни вужудга келтиради. Мазкур усулга асосланиб вазифани шундай йўсинда қўйиш мумкин:

Назариялар таҳлили

№	Назария ёки концепциялар	Муаллифи	Ютуқлар (аргумент)	Камчилик (аргумент)
1.	“Рух тараққиёти”			
2.	“Онғ тараққиёти”			
3.	“Кроцеанализм”			
4.	“Эволюционизм”			
5.	“Тарихий тақдир”			
6.	“Дарвинизм”			

7.	“Протестанлик этикаси”			
8.	“Диний тараққиёт ”			

Бундай топшириқ гуруҳларга бўлинган ҳолда бажарилиши мақсадга мувофиқ. Бунда ҳар бир гуруҳ (гуруҳлар аудитория ҳажмидан келиб чиқиб 2, 3, 4 тагача бўлиши мумкин) назария ёки концепцияларнинг муаллифи кимлигини ва уларнинг ютуқ ва камчиликларини асослаши лозим бўлади.

Кейинги қадам “Ассесмент” методининг модификацияланган кўриниши асосида гуруҳларда диний маданиятга оид социологик сўров ўтказишдир. Бунинг афзаллиги шундаки, талаба мезонларни ўзи муҳимлиги бўйича жойлаштиради ва буни изоҳлайди. Метод талабада мустақил қарор қабул қилиш ва ўз позициясини ҳимоя қилиш кўникмасини ривожлантирувчилик хусусиятига эга.


Диний ва дунёвий маданиятда ижтимоий тараққиёт меъзонлари рейтинги

(Сизнингча қайси меъзонлар муҳимроқ)

№	Меъзон	Нима учун	Рейтинг ўрни
1.	Ислом		
2.	Христианлик		
3.	Будавийдлик		
4.	Яҳудийлик		
5.	Ҳиндуйлик		
6.	Фан		
7.	Техника		
8.	Ахлоқ		
9.	(сизнинг вариантингиз)		

10.			
11.			

Шу билан биргаликда Венн диаграммаси технологияси асосида диний маданиятга ёндошувлар таҳлил қилинади.



“Муаммоли вазият” технологияси

Муаммонинг тури “Муаммоли вазият”	Муаммонинг келиб чиқиш сабаблари	Муаммони ечиш ва унинг йўллари
Ривожланган давлатларда диний маданиятга муносабат ижобий томонга ўзгармоқда. Бунга сабаб нимада деб ўйлайсиз?		

Блиц сўров усулидан фойдаланиб фаол бўлмаган талабалар тайёргарлигини синаб кўрилди.

1. Ўрта асрлар ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётидаги кескин ўзгаришларни диний маданият билан боғлаб таҳлил қилинг.

2. Буддавийлик динининг шарқ халқлари маданий ҳаётига таъсири.

3. Буддавийлик динининг архитектура санъатида намоён бўлиши.

4. Буддавийлик ва илмий билимлар ривож.

5. Христианликнинг Ғарб мамлакатларида ҳукмрон диний таълимотга айланиши сабабларини айтинг?

6. Христианлик маданиятининг ўзига хос жиҳатлари ҳақида маълумот беринг.

7. Христианлик динининг илм-фан ва таълим тизимида олиб кирган янгиликлари нимада?

8. Христиан маданиятининг тасвирий санъат ва архитектурада ифодаланиши.

9. Буддавийлик, христианлик ва ислом диний маданиятлари ўртасида уйғунлик ва фарқли жиҳатларни аниқланг.

Ўқув топшириқ:

Диний маданият турлари асосида жадвални тўлдиринг.

Илмий нуқтаи назардан					
Христианлик маданияти		Ислом маданияти		Буддавийлик маданияти	
Афзаллиги	Замонавий кўринишлари	Афзаллиги	Замонавий кўринишлари	Афзаллиги	Замонавий кўринишлари
Хулоса:					